<i>Burkhiev Olimjon Boboevich</i> SYSTEM OF APPLICATION OF INFORMATION TECHNOLOGY AS A MEANS OF IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION IN A UNIVERSITY .....	424-429

**Received:** 05 May 2024  
**Accepted:** 10 May 2024  
**Published:** 25 May 2024

*Article / Original Paper*

## **TRADITIONAL IMAGES IN FAIRY TALES**

**Ruzikul Mustafokulov Boynazarovich,**

Associate Professor of Primary Education Department of Termiz State University, Candidate of Philological Sciences

e-mail: [rustamkhurramov@mail.ru](mailto:rustamkhurramov@mail.ru)

**Abstract.** This article is written about the traditional images in fairy tales, and the fairy tales we recorded from the language of the elderly people of Surkhondaryo region also have common features of fairy tales recorded from other regions, such as a unique beginning, ending and details, real and imaginary characters, adventure-like plot paths. there is.

**Key words:** poet, creativity, poetic, lyrics, feeling, life, society.

## **ERTAKLARDA AN'ANAVIY TASVIRLAR**

**Mustafoqulov Ro'ziqul Boynazarovich,**

Termiz davlat universiteti boshlang'ich ta'lim kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

**Annotatsiya.** Ushbu maqola ertaklarda an'anaviy tasvirlari haqida yozilgan bo'lib, Surxondaryo viloyati keksalari tilidan yozib olganimiz ertaklarda ham boshqa hududlardan yozib olingan ertaklarga xos umumiy xususiyatlar o'ziga xos boshlama, yakunlanma va detallar, hayotiy va xayoliy obrazlar, sarguzasht shaklidagi syujet yo'llari mavjud.

**Kalit so'zlar:** shoir, ijod, poetik, lirika, tuyg'u, hayot, jamiyat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI3Y2024N38>

**Kirish.** Xalq ertaklarini o'rganish va ilmiy tadqiq etish sohasida ancha ish qilingan. Ertaklardagi voqeabandlik, biron voqeaning mukammal hikoya qilinishi ularning o'ziga xosligini ta'minlaydi. Unda voqealar xayoliy va hayotiy uydirmalar asosida, kishilarga estetik zavq uyg'otadigan shaklda bayon etiladi. Ertaklar xalq og'zaki ijodining yanada boshqaroq o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lgan janrlarda hisoblanadi. Umum sabab doimiy ommaviy janrlardan hisoblanadi. Ertaklar Surxondaryo viloyatining ayrim tumanlarida matal deb yuritiladi [6, 23-42-b].

Ertaklarda fantastika asosiy o'rin egallashi nuqtai- nazaridan uning joni va qoni" hisoblanib, tutgan o'rni, me'yori va funksiyasiga qarab, folklorshunoslikda ertaklar fantastika elementlari ustun bo'lgan va fantastikaning elementlari kuchsiz element shaklida uchraydigan yoki umuman uchramaydigan deya ikki guruhga ajratiladi.



Bundan tashqari, ertaklar obrazlar talqini, g'oyaviy mazmuni va konflekti, syujet va "kompozitsiyasi, fantastik uydirmaning o'rni hamda tili va stiliga ko'ra shartli ravishda hayvonlar haqidagi ertaklar, sehrli ertaklar, maishiy ertaklarga bo'linadi" [6, 23-42-b].

**Tahlil va natija.** Ertak aytuvchilarning mahorati bilan bog'liq ravishda ularning variantlashuv holatlari ham kuzatiladi.

Ularni Viloyatimiz "tumanlari aholisidan yozib olingan ayrim ertaklarni tahlillarda ko'rib chiqaylik. Masalan, "Mardikor" ertagi sehrli ertaklar sarasiga kiradi. Unda aytilishicha, bir chol-u kampirning yolg'iz o'g'li bo'lib, u mardikorlikka olinib, o'n yil mardikor bo'ladi. Qaytib kelayotga, bir joyda qora bayroq ilingan. Bilsa, podshoning bir qizi bo'lib, kundan-kun semirib, gunohi ham ortib borayotgan. Qo'yg'an qorovullar bu sirni bilolmagani uchun boshi ketayotgan jumboq holda qolaveradi.

Yigit bu sirni bilishga ahd qiladi. O'sha kechasi qorovul turib, sirni biladi. Avvalo, u ko'zini ochib, kiprik qoqmay yotadi. Qiz buning uxlashi shu bo'lsa kerak, deb yarim kechada yo'lga chiqadi. Yigit izidan boradi. Qiz bir go'r ichiga kirib ketadi. Yigit uning izidan go'r ichida borayotga, uch bola janjallashib turibdi. Ularning otasidan qolgan bir etik, telpak, sumkasi bo'lib, hammasini akasi olmoqchi ekan. Bu buyumlarning sirini so'rasa, etik aytgan joyga yetkazar, telpak egasini ko'rsatmas, sumka ham solingan narsani ko'rsatmas va to'lmas ekan.

Yigit miltig'ini o'qlab, yotadi-di, kim o'qni oldin topib kelsa, o'sha bu buyumlarga ega bo'ladi, deydi. Bolalar yugurib ketishadi. Yigit qizning izidan yetib boradi. Qiz bir davraga tushadi. Yerda xilma-xil taomlar, yigit qiz yechib qo'yg'an uzugini, tishlab qo'yg'an olmasini sumkaga solib qo'yadi-da, suhbatga quloq solib o'tiradi.

Tong otishiga bir soat qolganda, qiz qo'zg'aladi. Go'rdagilar ertaga ertaroq kel deb kuzatishadi. Yigit esa sehrli etik kuchi bilan uydagi joyiga kelib yotadi.

Qizni tekshirish yanada og'irlashibdi. Yigitni o'ldirmoqchi bo'lishsa, u sirni bilganini aytib, voqeani tushuntiradi. qizning uzugi va tishlagan olmasini ko'rsatadi. Qiz bunga hayron bo'ladi [3].

Shoh qizini yigitga bermoqchi bo'ladi. Ammo u rozi bo'lmaydi. Ota-onasining oldiga boradi. Kutib o'tirgan ota-ona to'y boshlab yuboradi.

Ko'rinadiki, bu ertakdagi xayoliy voqealar, ma'lum sarguzasht, sehrgarlik chiziqlari bilan qo'shib, qorishib kelgan. Masalan, mardikorlikka olish voqeasi shunday tarixiy-hayotiy voqealardandir. Shu bilan sehrli sarguzasht tarzidagi go'r ichidagi yurish, sehrli telpak, etik, sumkalardan foydalanish kabi xayoliy uydirmalar ertakning qiziqarliligini oshirgan.

An'anaviy tarzda ertak qahramoni jasoratga qo'l uradi, qorovullikda o'lib ketayotganlarni qutqazishga bel bog'laydi, tadbirkorlik ko'rsatadi. Bu sohada unga sehrli telpak, etik va sumka yordam beradi.

Odatda, ertaklarda qahramon podsholarning qizlariga uylanadi. Bu ertakda esa yakun boshqacharoq, kambag'al yigit shoh qiziga uylanishdan bosh tortadi, ota-onasi yoniga shoshadi. Bu o'z asoslariga ega. Demak, yigit tarbiya ko'rgan, axloqli kishi bo'lib, sirli bazmlarda yurgan shoh qizidan hazar qiladi, deb tushunmoq kerak.

"Qizil tuya" ertagi ham ana shunday o'ziga xos sehrli- 'sarguzasht syujet chiziqlariga ega. Bu ertakda ham yer ostiga kiriladi. "Mardikor" ertagida yer ostiga kirish qizini bir guruh kishilar bilan bazmda bo'lishini ko'rsatsa, "Qizil tuya" ertagida qahramon u dunyo sirlaridan ogoh bo'ladi, qahramon yigit u yerda tuyasini ko'radi. Daxmarda (ertak qahramonlaridan biri) unga

tuyani olib ketish iloji yo'qligini, uning jonigina bu yerdaligini tushuntiradi. Demak, tuyani yo so'yib yeyishgan yoki yirtqich hayvonlarga yem bo'lgan [4].

Ertakdagi tasvirlar katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Masalan, yigit jannatda o'sayotgan turli mevalardan totib ko'rmoqchi bo'ladi. Ammo daraxt shohlari balandlab ketib, mevasidan yedirmaydi. Buning sababini so'raganda, Daxmarda kimki, hayotda daraxt ekan bo'lsa, mevalaridan boshqalar tatigan bo'lsagina, jannatda ular evaziga meva yeyishga sazovor bo'lishini aytadi. Daryoda turli idish-tovoqlarda oqib kelayotgan taomlar ham yigit olib yeyman desa, qochadi. Daxmarda buni ham tushuntiradi: kimki, hayotligida sadaqa qilgan, boshqalarga taom bergan bo'lsa, ular bu yerda nasib bo'ladi. Yigit yo'lda bir keksaga yarimta qozonpatir bergan edi, o'sha daryoda oqib keladi va uni tutib yeydi.

Jannatdan chiqishda daxmarda yigitga tushuntirib aytadiki, jannatda bo'lgan bir kun o'n yilga teng, yigit bu yerda to'rt kun bo'ldi, kelganida o'n sakkiz yoshda edi, demak. hozir ellik sakkiz yoshda.

Darhaqiqat, yigit qaytib kelsa, ota-onasi allaqachon vafot etgan, uylaridan, yerlaridan boshqalar foydalanishmoqda.

Ushbu ertak kompozitsiya jihatidan izchil qurilgan bo'lib, o' qahramon hayotining uch davrini o'z ichiga oladi. Masalan, "Qizil tuya" ertagida yigitning tuyani izlab chiqishi, Daxmarda yordamida jannatga kirishi, u yerdan chiqib, qishlog'iga kelishi. "Mardikor" ertagida ham bu o'xshashlik bor, yigit mardikorga olinadi, qaro bayroqni ko'rib, sirini ochmoqchi bo'ladi-yu, bu qahramon hayotida bir davr bo'lsa, qizning sirini ochgani go'r ichiga kirishi va u yerda ko'rgan-kechirganlari bir davr, undan keyingi qiz sirini podshoga ayon etishi, so'ngra qishlog'iga ketib, ota-onasi bilan topishishi uchinchi davrni tashkil etadi.

Odatda, ertaklarda sehr olamiga kirishda ham qandaydir tilsimlar ro'y beradi. "Qizil tuya" ertagida ham shunday: yigit qir tepasidagi uch qizil tosh o'rtasida yotadi, Daxmarda toshlardan birini tayog'i bilan turtib, yo'l ochadi. Mardikorda go'rga kirishda bunday tilsim ochish an'anasi yo'q. Ehtimol, ilgarigi aytishlarda bo'lgandir, aytuvchi esidan chiqarib yoki shoshilib, uni tushirib qoldirgandir [5].

Ertak qahramonlari an'anaviy ravishda qo'rqmas, dovyurak qilib tasvir etilgan. "Qizil tuya" ertagi qahramoni uch tosh orasida uxlaganda, tepasiga bir uzun bo'yli kishi (Daxmarda) kelib turadi, o'zi bir tomonda, ko'kragiga suyangan tayog'ining bir uchi o'ning ikkinchi tomonida, yigit uyg'onib qo'rqmaydi, aksincha odob bilan salom beradi. "Mardikor" ertagi qahramoni ham qora bayroqni ko'rganda bu yerda turgan bobodan gap nimadaligini so'raydi. Bobo qiz tufayli qorovullar o'layotganini aytganda, bu sirni ochishga da'vat etadi, boboning ketishga undagan nasihatlarini rad etadi.

Boysunlik Sharofat momo Isaevadan yozib olgan ertagimiz "Xosiyatli kallabuzar" deb ataladi. Unda hikoya qilinishicha, bir chol-u kampirning bir o'g'li, uch qizi bo'lgan. Bobo vafot etish oldidan vasiyat qilib o'g'liga tayinlanganki, uch kecha qabrimni aylan, u yerda nimani ko'rsang, opa-singillaringni ularga ber. Yigit birinchi kecha mozorda bir ko'ppakni ko'rib, unga katta opasini, ikkinchi kecha tozini ko'rib o'rtancha opasini, uchinchi kecha bir gurjini ko'rib, singlisini mindirib yuboradi.

Vaqt o'tib, qashshoqlashib qolgach, pul topish uchun yo'lga chiqadi. Yo'lda bir chopki topib oladi. Uni olib, ko'radi, tasodifan qo'lidan tushib ketadi. Shu payt darhol pichoqdan uch qulbachcha chiqib "labbay, nima xizmat!" deb turadi.

Bir shaharga borib bir kampirning uyiga tushadi. Podshoning Cho'lponoy ismli qiziga pichoqning karomati bilan uylanadi

Ushbu ertak sarguzashtga undaydi, fantaziyaga o'rgatadi. Ammo uning aytilishida ham ayrim kamchiliklar borligi seziladi. Masalan, ota qabriga itlarning kelishi. Ularga qizlarning mindirib yuborilishi asoslanmagan. Bu alohida syujet chizig'i bo'lishi mumkin; lekin ertakdan uzilib qolgan, qizlar taqdiri noma'lum bo'lib qolgan. Yigit yashagan qishloqning nomi Beshovur, borgan shahrining nomi Shabruz deb ataladi, ammo ular nima uchun shunday deb atalishiga izoh bermagan. Pichoq kallabuzar deyiladi, unga ham izoh keltirilmaydi. Ertak yakunida yigit o'zi borgan shaharda uylanib qoladi. Vaholanki, an'anaviy ertaklarda qahramon albatta o'z yurtiga kelishi yoki xabar olishi kerak. Bu ertakda ham yigit onasini yo'qlashi lozim edi.

"Ko'k ipak" (sigir) ertagida hikoya qilinishicha, bir cholning xotini o'lib, undan Fotima ismli qiz qoladi. Chol bir ayolga uylanadi. Uning ham Zulayho ismli bir qizi bo'ladi. O'gay ona va tantiq qizi Fotimaga kun bermas, har kuni ko'k sigirni o'tlatib, paxta chigillab, ip yigirish topshirig'ini berar ekan.

Fotima sigir sharofati bilan har qancha ip yigirish topshirig'i bo'lsa, bajaradi, sehrgar kampirga uchrab, husniga husn qo'shiladi. Bunga u o'zining halolligi, to'g'riligi bilan erishadi. Vazirning o'g'liga turmushga chiqadi.

Zulayho esa o'zining befarosatligi, egriligi tufayli badnom bo'ladi, peshonasida bitmas yara paydo bo'ladi.

O'gay o'gayligini qiladi, qiziga fol ochirib, foliga ko'k sigir chiqaradi va Fotimaning sevimli ko'k sigirini so'yib yeyishadi [7].

Sehrgar momoning maslahati bilan Fotima sigirning suyaklarini to'plab ko'mib qo'yadi va u yerdan bir sandiq boylik, kiyimlar paydo bo'ladi.

Xolbi momodan yozib olganimiz, "Kambag'al odam" ertagi ham qiziqarlidir. Unda tasvir etilishicha. Bir kambag'al yigit uylanib, boshqorong'i bo'lgan xotiniga anor olishi kerak bo'ladi. Xotini ip yigirib, bir qop tikib beradi. Yigit qopni bozorda sotadi. Pulini beliga tugib kelayotsa, bir kishi "bir gap sotaman" deb o'tirganmish. Haligi puliga o'sha gapni sotib oladi. Bu: "u yoqqa jur, bu yoqqa jur, o'z bilganingdan qolma" degan gap ekan. Yigit bir joyga borsa, kishilar quduqqa kirib, bo'yinsiz bo'lib chiqayotgan ekan. U kishi quduqqa kiribdi. U yerda bir kishi o'tirgan, bir tizzasida qurbaqa, bir tizzasida toshbaqa. Yigitdan ularni qaysisi yaxshiligini so'rabdi. Yigit: "ikkalasi ham yaxshi, birining o'zini, birining ko'zini yaxshi ko'ribsiz", deydi. Shunda haligi odam uning javobidan mamnun bo'lib, tilla tilagingni deydi. Yigit ikkita anor, bitta miltiq so'raydi. Yigit qo'shnisiga anorni berib, xotiniga eltib berishni tayinlaydi-da, o'zi yana yo'lga tushadi. Bir qora uyga kirsa, bir qiz bog'langan, u ajdarhoga yem bo'lishi kerak ekan. Yigit ajdahoni o'ldiradi, boy qizini unga sovg'a qiladi [11].

Yigit qizni olib uyiga keladi. Xotiniga bergan o'sha anorining ichi to'la tilla bo'lgan. Uning yarmiga xotini hovli-joy qurdirgan. O'g'il ko'rgan, o'g'il voyaga yetgan. Yigit kelsa, xotining yonida suqsurday yigit. Xotin voqeani tushuntiradi. Yigit olib kelgan qizni to'y qilib o'g'liga olib beradi.

Bu ertakda ham o'ziga xos sarguzasht bor. Quduq ichida o'tirgan kishining savoliga javob berolmaganlarning boshsiz bo'lib qolishi, anor ichidan tilla chiqishi kabi sehrlil holatlar, yigitning ajdahoni o'ldirishi kabi afsonaviy qahramonliklar, qiz yigitning o'ngiridan kesib olib qolishi, uni topib boshidan tilla sochishi kabi an'anaviy tasvirlar. Kambag'al o'g'lining tez voyaga yetishi kabi uydirmalar ertakning ta'sirchanligini ta'min etuvchi vositalarga aylangan.

Ma'lumki, turli qushlar, hayvonlarning totim sanalishi ko'pgina xalqlarda, jumladan o'zbeklarda ham qadimdan mavjud. Shuning uchun ertaklarda dev, pari, ajina, alvasti, yalmog'iz kampir kabi mifik personajlar orasida bunday qush va hayvonlar obrazlari ham harakat qiladi.

Masalan, "qiz va ilon" ertagida qizga ko'ngil qo'ygan, uni qo'lga tushirolmagan, yomonlik, yovuzlik ila o'ch olmoqchi bo'lgan ilon obrazi berilgan. Unda hikoya qilinishcha, bir kambag'al chol-kampirning yolg'iz qizlari bo'lgan. Qishloqdan nariroqda yashovchi ilon goh-goh yigit qiyofasiga kirib, qishloq aylanar ekan, shu yurishda bir kuni o'sha qizni ko'rib qoladi [10].

Qiz tushida oyna ko'radi, o'z baxtini izlab yo'lga chiqadi. Ammo ilon qizning ahdini sezib, g'azablanadi va izidan tushadi. Qiz xudoga nola qilib, toshga kirib qutiladi. U bir cho'ponnikiga boradi, cho'ponning uch qo'ra qo'yi bo'lib, ularga uch o'g'li qararkan. Qiz bir o'raga kirib yashaydi, kechalari cho'ponnikidan non o'g'irlab kelib yeydi.

Cho'pon non o'g'irlanayotganini sezib, o'g'illariga maslahat qiladi. Uch kecha uch o'g'il poyloqchilik qilib, uchinchi kecha kenja o'g'il qizni aniqlaydi. Cho'pon uni o'g'liga to'y qilib olib beradi. Qiz o'g'illi bo'ladi.

Kunlardan bir kun ularning uyiga devona keladi. Qiz uning o'sha ilon ekanligini sezadi va buni uyidagilarga ma'lum qiladi. Ehtiyotkor ota ularni boshqa xonaga saqlaydi. Ilon esa tunda qiz yashaydigan uyni yondirib yuboradi va qizni eri, bolasi bilan nobud bo'ldi deb o'ylab, boshqa qaytib kelmaydi.

Bu yerda ilon yovuz kuch, yomonlik qiluvchi obraz sifatida yaratilgan. Ertakda ilonning odam qiyofasiga kirishi, qizning she'riy nola qilishi, tosh yorilib, yomonlikdan omon qolishi, cho'pon o'g'illarining o'g'rini tutish uchun uch kecha poyloqchilik qilishi, uchinchi kecha kenja o'g'lining hushyorlik ko'rsatib, uni tutib olishi va uylanishi kabi an'anaviy tasvirlar mavjudki, ular ertakning qiziqarli chiqishini ta'minlagan [9].

Ilon, ajdaholarning qizga oshiq bo'lishi, odam qiyofasiga kirib, uylanishi juda ko'p ertaklarning mazmuniga singdirilgan jarqo'rg'onlik. Nuqra momodan yozib olganimiz: "Oq bilak" ertagiga ham shu mavzu asos bo'lgan. Unda aytilishicha, bir chol-u kampirning oq bilak degan yolg'iz qizlari bo'lgan. Chol-kampir bozordan qaytayotganda ajdahoga uchrab, qizlarini unga berishga rozi bo'lishadi. Ajdar qizni ergashtirib ketib, bir tog' oldida qizga "ko'zingni yum", deydi. Qiz ko'zini ochganda ajoyib bog'-rog'li hovlida o'zini ko'radi, ajdaho ham ajoyib yigit qiyofasida ko'rinadi.

Ular turmush qurib, yigit ov qilib, qiz uy ishlarini bajarib yashayverishadi. Ular farzand ko'rishadi.

Yuqorida biz alla haqidagi shakllardan birini eslatgan edik. Xalq ijodkorligi shundaki, ayrim voqea tasvirlari, ayrim syujet chiziqlari asardan asarga ko'chirib foydalaniladi. Yuqorida eslatganimiz alla haqidagi naql "Oq bilak" ertagiga ham kiritilgan. Unda ona qiziga farzandingga alla aytma deb o'git etsa, bu ertakda ajdaho yigit yoniga "men ovga ketganimda, bolangga alla aytma" deb tayinladi.

Qiz rozi bo'ladi. Ammo bir kuni bolasini ovutish uchun alla aytadi. Shunda ota-onasiga qavm-qarindosh, qishloq va qishloqdoshlari yodiga tushadi. Yig'lab o'tirganda, yigit kelib "alla aytibsan-da, yur endi, ota-onangni ko'rib kelamiz", deydi.

Yigit yo'lda ilon po'stini xotiniga beradi va uni yo'qotmaslikni, yo'qotsa, ajrab qolishlarini tayinlaydi.

Ammo qiz ehtiyotsizlik qiladi. Tandirga non yopib turganda, qo'shnisining qizi unga yordamlashmoqchi bo'ladi, kovushini kiyishni ham havas qiladi. Patak tagida bir narsa borligini sezgan qiz, patakni olib ko'radi va uni tandirdagi o'tga tashlab yuboradi.

Bundan ogoh bo'lgan yigit "endi biz birga bo'lolmaymiz" deya ko'k kaptarga aylanib, uchib ketadi.

Yuqoridagi "Qiz va ilon" ertagida ilon yovuz kuch, yomonlik bilan o'ch olmoqchi bo'lgan obraz sifatida talqin etilgan bo'lsa, "Oq bilak" ertagida dastlab chol-kampirni qo'rqitgan bo'lsa-da, oxirida samimiy, mehnatkash, mehribon yor sifatida gavdalanadi. Ammo qiz ehtiyotsizligi oqibatida baxtidan ajraladi.

Jarqo'rg'onlik Sharifa Xoliyorovadan yozib olganimiz "Ona qiz" ertagida ham ehtiyotsizligi tufayli baxtidan ajralgan shunday qiz obrazi yaratilgan. Yuqoridagi "Oq bilak" ertagida qiz ehtiyotsizligi tufayli baxtidan mahrum bo'lib yig'lab qolsa, "Ona qiz" ertagidagi qahramon o'z baxti izidan quvib borib, yana topishish sharafiga muyassar bo'ladi. Bu ertakda hikoya qilinishicha, bir chol-kampirning uch o'g'il, bir qizi bo'lgan. Husnda yagona bu qizga uzoq-yaqindan sovchilar keladi, ammo u qizning baxti it bilan bog'langanni ma'lum bo'ladi.

Yuqorida ertaklarda ayrim hayvonlar totim obraz sifatida qatnashishini va xalqimizda ularni totim sanash qadimiy ekanligini ta'kidlagan edik. "O'gay ona" ertagida otning sehrigarlik, sezgirlik kuchi ta'sirchan tasvir etilgan. Unda hikoya qilinishicha, bir cholning yolg'iz o'g'li, xotinini esa iyartma ikki o'g'li bo'lgan. Chol o'g'lining yer osti otxonasi, qulini, tovug'i bo'lgan. U maktabga ketganda, kampirning o'g'illari tovuqni quvlab, otxonaga tushib qolishadi va onasiga otni olib berishni so'rab xarxasha qilishadi.

Kampir yigitni o'ldirib, otini olmoqchi bo'ladi. O'ra qazib ustini yopib qo'yadi, nonga, ovqatga zahar qo'shadi, ammo har gal yigit otning maslahati bilan qutilib qoladi. Oxiri kampir otni o'ldirmoqchi bo'ladi. O'zbek ertaklaridagi an'anaviy tasvirlarga xos shaklda belini ipga bog'lab yotadi. Har qimirlaganda yupqa ip qisirlaydi. Eridan tabib chaqirtishni so'raydi. Tabib esa otni so'yib, go'shtini yedirishni aytadi.

Yigit ot so'yilishi oldidan bir aylanib kelishni iltimos qiladi, ot esa uni qayerga eltadi, yigit podsho qiziga uylanib, murod-maqsadiga yetadi.

Tojixol momo Alimqul qizidan yozib olganimiz "Shamsharbus" ertagida boshqacharoq sarguzasht chizig'i mavjud. U bir kishi tushini sotib, undagi g'aroyibotlarda mahrum bo'ladi, uning tushini sotib olgan cho'pon esa podsho qiziga uylanib murod-maqsadiga yetadi. Ertakda yigitning fahm-farosati, aqlini sinovchi ba'zi tasvirlar mavjud. Masalan, qiz o'tloqlar, qo'y-qo'zilar haqida gapirib, uning tili burro ekanligini, bozorga yuborib, aqlli savdo qilishini biladi.

Ayrim ertaklar tabiatdagi shifobaxsh o'simliklarning xosiyati va uni izlash yuzasidan qahramonlar boshidan kechirgan sarguzashtlar haqidadir. Bu xil ertaklarda halol, pok, to'g'ri yo'ldagi insonlar g'olib kelishadi, xiyonatchilar jazosini tortishadi.

Qumqo'rg'onlik Xolboy ota Chorievdan yozib olganimiz "Shifobaxsh daraxt" ertagi shunday xususiyatga ega. Unda hikoya qilinishicha, bir podshoning uch nafar suluv qizi bo'lgan, bir kuni shohning ko'zi ojiz bo'lib qoladi, tabiblar Buxoro tarafdagi shifobaxsh daraxtning po'stlog'idan davo topishini aytishadi. Shoh katta in'om va'da qilsa-da, u yoqqa hech kim boraman demabdi. Katta qizi yo'lga chiqib, suv odamdan qo'rqib qaytadi. O'rtancha qizi o'rmonda vahshiy hayvondan qo'rqib qaytadi. Kenja qiz ulardan qo'rqmay, balki ularni yengib o'tadi.

Qiz tabib va u bergan sehrli choy, hasa yordamida tilsimlarni, yovuzlarni yengib, shifobaxsh dorini olib qaytadi. Podsho uning ko'zini ochib, uni dushmanidan qutultiradi. Podshoning ham, o'zining, otasining ham ko'zini ochib, murod- maqsadiga yetadi [8].

Ko'pgina ertaklar borki, ular hajman katta emas, sarguzasht, sehrgarlik tasvirlariga boy emas. Ular hayotiy tasvir chiziqlaridan iborat bo'lib, ayrim axloqiy tushunchalarni targ'ib etadi.

Masalan, angorlik Rahmon cho'pon aytgan ertakda hikoya qilinishicha, bir podsho bo'lib, yonidagilarni sinash uchun "Kecha men bir sir ko'rdim. Yaxshi bir ustaga bir zo'r temirdan bel qildirib kelib, uyga suyab qo'ysam, shu kechaning o'zida uni sichqon teshibdi", deydi. Yonidagilar: to'g'ri, taqsir, teshadi, deb tasdiqlashibdi. Vaqti kelib yangi podsho taxtga chiqqach, sobiq shoh o'sha davrada-vazirlar, ulamolar yonida bir toldan bel qilgani, uni sichqonlar teshganligini aytadi. Davradagilar bu gapni rad etib kulishadi.

Shoh nega taxtda turganida sichqonlar po'latni teshdilar-u, taxtdan tushsa, tolni ham tesholmaydi, deb hayron bo'ladi.

Bundan yangi shoh xulosa chiqardi, xushomadgo'ylarni saroydan quvadi.

Bahor moma aytgan "Qo'rqqoq chol" ertagida qo'rqqoqlik qattiq qoralanadi.

Xosiyat momo aytgan "Oltin olma" ertagida esa boy-badavlat bo'lgani bilan oilada farzand bo'lmasa, unda kamchilik bo'lishi, xursandchilik bo'lmasligi, aksincha, kambag'al bo'lsa-da, oilada farzandlar bo'lsa, kambag'alchilik unutilib, katta g'oyaviy-estetik yo'nalishlarga va ta'limiy-estetik vazifalarga egadir. Ularda o'zbek xalq og'zaki ijodining ushbu janrlariga xos barcha an'anaviy tasvirlar ham, o'ziga xosliklar ham mavjud. Ularning til xususiyatlariga to'xtalganda, shuni aytish kerakki, mevaga xos elementlar, leksik-grammatik vositalar ko'p uchraydi. "Jo'q", "Jo'l", "Juripti", "tla tilovingni", "aydahar", "jigit", "yoqdon" (sandiq), "jolta" (yalta), "jolmovuz" (yalmog'iz), "chavdish", "ottoba" (oftoba), "polbin" va boshqalar shular jumlasidandir.

**Xulosa.** Yuqorida tilga olib o'tgan ertaklarimiz katta tarbiyaviy ahamiyatiga egadir. Chunki ularda vatanparvarlik, xalqparvarlik g'oyalari alohida jaranglab turadi. Bu janrlardagi asarlar bolalarning fantaziyasini o'stirishga, tafakkurlarining rivojlanishiga, nutqlarining o'sishiga yordam beradi.

Shuni ham aytish kerakki, Surxondaryo viloyati aholisi tomonidan aytib kelinayotgan bunday behisob, son-sanoqsiz, ertaklar kam o'rganilgan, larning variantdorlik xususiyatlari tekshirilmagan. Ularning ko'pi hali yozib inmagan oilada shod-xurramlik hukm surishi tasvir etilmagan.

#### Адабиётлар/Литература/References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. –Toshkent: "O'zbekiston". – B. 387.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1- jild. Toshkent: "O'zbekiston", 2017. 570 – b.
3. Mustafoqulov R.B., Surxondaryo fol'klorining hozirgi yashash holati va badiiyati. Monografiya. "Xonjiza maskani" nashriyoti 2023-yil. nashriyoti 2023-yil.
4. Mustafoqulov R.B., Uslubiy qo'llanma. Xalq pedagogikasi sarchashmasi. Ter DU NMM nashriyoti 2023-yil.
5. Mustafoqulov R.B., Xalq og'zaki ijodi-tarbiya maktabi Xalq pedagogikasi Xalqaro simpozimu materiallari. 95-96-betlar. Termiz-1995 y.

6. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O., O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi, T., "O'qituvchi" 1990. 23-42-b.
7. Мустафоқулов Р. Сурхон адиблари болаларга. Тошкент "Ёзувчи" нашриёти-2000 й. 71-78-б.
8. Мадиев О., Собитова Т. Халқ оғзаки поэтик ижоди. "Шарқ" нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси. Тошкент-2001. 63-71-б.
9. Жаҳонгиров Ғ. Ўзбек болалар фольклори "Ўқитувчи" нашриёти 1975 й. 28-44-б.
10. Иброҳимова З. Кичкинтойлар адабиётининг хусусиятлари. Тошкент "Ўқитувчи" нашриёти 1994 й. 13-20 б.
11. Турсунов С., Пардаев Т., Турсунов Н., Муртазоев Б. Ўзбекистонда бахшичилик санъатининг шаклланиши ва таравиёти тарихи. Тошкент-2015 й. "Тафаккур" нашриёти.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ S/3(4) – 2024*

### АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

#### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).